


YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021- yilning yanvar–iyunida Samarqand viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 21 045,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 5,6 % ga o'sdi.

YaHM deflyator indeksi 2020- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 113,8 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Samarqand viloyatining qo'shgan hissasi 6,6 % ga yetdi.



Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


		<i>Mlrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
		<i>2020- yil</i>	<i>2021- yil</i>	
	I. YaHM	17 499,3	21 045,2	105,6

shu jumladan:

	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	17 140,2	20 508,9	105,6
	Mahsulotlarga sof soliqlar	359,1	536,3	107,6
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	17 140,2	20 508,9	105,6
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6 338,5	7 490,5	100,2
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	3 794,9	4 562,5	108,8
	sanoat	2 647,6	3 185,0	108,1

		Mird. so'm		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
		2020- yil	2021- yil	
	qurilish	1 147,3	1 377,5	110,5
	Xizmatlar	7 006,8	8 455,9	108,8
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 229,7	1 506,2	109,0
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	1 108,8	1 416,6	114,6
	boshqa xizmat tarmoqlari	4 668,3	5 533,1	107,3

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 5 307,6 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,7 % ga yuqoridir.




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiyligi YaHMning 97,5 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,5 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YaHMning tarmoqlari bo'yicha tarkibidagi ulushi 36,5 % ni, sanoat tarmog'i 15,5 % ni, qurilish 6,7 % ni va xizmatlar sohasi 41,3 % ni tashkil qildi.




Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2020- yil	2021- yil
I. YaHM, jami		100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	97,9	97,5
	Mahsulotlarga sof soliqlar	2,1	2,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati		100,0	100,0
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	37,0	36,5
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	22,1	22,2
	sanoat	15,4	15,5
	qurilish	6,7	6,7
Xizmatlar		40,9	41,3
	savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,2	7,3
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,5	6,9
	boshqa xizmat tarmoqlari	27,2	27,1




Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


2020- yil





2021- yil



YaHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobjiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 100,2 % (YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 36,5 %), sanoatda – 108,1 % (15,5 %), qurilishda – 110,5 % (6,7 %), xizmatlar sohasida –108,8 % ni (41,3 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,0 % (7,3 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 114,6 % (6,9 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 107,3 % dan (27,1 %) iborat bo'ldi.





Yanvar-iyun oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



YaHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,1 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida salbiy – 0,8 f.p.), sanoat tarmog'i 1,2 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida salbiy – 0,3 f.p.), qurilish tarmog'i 0,7 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida salbiy – 0,2 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi 3,5 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida salbiy –0,3 f.p.) ijobiy (salbiy) hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YaHM 0,2 f.p. (2020- yilning yanvar-iyunida salbiy – 0,1 f.p.)ga ko'paydi.



2021- yilning yanvar-iyunida YaHM deflyatori indeksi 2020- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 113,8 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 118,0 %, sanoatda 111,3 % va xizmatlarda 110,9 % qayd etildi.



2021- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi 70,4 %ni tashkil qildi (2020- yilning yanvar-iyunida – 71,4 %).

YaHMning o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.